

**TIBBIY XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-
IQTISODIY AHAMIYATI**

I.f.f.d. (PhD) Xakimov Zafar Ibragimovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,

Avazova Madina Abdisamiyevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiyotidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati aks etgan. Xususan mamlakatimizda tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanish bosqichlari, huquqiy asoslari va innovatsion yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy xizmatlar bozori, inovatsiya, samaradorlik, iqtisodiy o'sish, investitsiya, sifat indeksi.

Abstract: The article reflects the socio-economic importance of the development of the medical services market in the country's economy. In particular, the development stages of the medical service system in our country, legal bases and innovative directions are shown.

Keywords: medical services market, innovation, efficiency, economic growth, investment, quality index.

Mamlakatimizda aholi salomatligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining eng muhim omillaridan va jamiyatning mehnat unumdorligining ajralmas elementlaridan biridir. Texnologik taraqqiyot tibbiyotdagi og'riqli masalalarni hal qilayotgan bo'lsada, ko'plab davlatlarda nosog'lom yashash tarzi millionlab odamlar hayotini qiyinlashtirmoqda.

Jahonda aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlantirishni integratsiyalashgan innovatsion ishonchli va samarali tizimini yaratish jarayoni ketmoqda. Bugungi kundagi global sharoitda tibbiy xizmatlar tizimini zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanib, rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. JSST klinikalarda xizmat ko'rsatish sifat darajasi va indeksi bo'yicha tibbiyot darajasi bo'yicha dunyo mamlakatlari reytingida Janubiy Koreya 83,40 foiz, Niderlandiya 81,08 foiz, Daniya 77,07 foiz, Germaniya 75,44 foiz, Norvegiya 74,66 foiz, Buyuk Britaniya 74,19 foiz, Izrail 74,05 foiz, AQSh 68,38 foiz, Singapur 69,61 foiz, Rossiya 56,77 foiz ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlangan¹. JSST tahliliga ko'ra, inson salomatligiga ta'sir etuvchi omillar orasida tibbiy ta'minot 10 foizni, irsiy omillar 15 foizni, atrof-muhitning holati 20 foizni tashkil etadi. Eng muhimi, insonning turmush tarzi (jismoniy faollik, ovqatlanish, zararli odatlar) uning salomatligiga 55 foizgacha

ta'sir ko'rsatar ekan². Shu sababdan tibbiy xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirishning optimal usullarini ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Jahonda fuqarolar sog'ligini saqlashning zamonaviy texnologik asoslarini kuchaytirish, bunda pullik tibbiy xizmatlarlaridan keng foydalanish, raqamlashtirish sharoitida global nuqtai nazardan tibbiy xizmatlar tizimini iqtisodiy tahlillar asosida modellashtirishning huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hududlarda sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatishda davlat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar bilan birga, davolash, profilaktika xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish muhim amiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida boshqarish tizimini takomillashtirish, aholiga birlamchi tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni sifatli ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi" da jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Xalqaro standartlari va tavsiyalarini implementatsiya qilgan holda tarmoqni kompleks huquqiy tartibga solishni ta'minlash. Sog'liqni saqlashning birlamchi va ikkilamchi darajadagi, tez tibbiy yordam tibbiyot muassasalarining samarali integratsiyasini ta'minlash uchun sog'liqni saqlashning tuman bo'g'inini isloh qilish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.³ Hozirgi vaqtda sog'liqni saqlashning keng ko'lamli tizimlarini, yaxlit korporativ tuzilmalar va kichik biznes kabi tibbiyot tashkilotlarini, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning biotibbiyot tizimlari va ilg'or texnologiyalarini rivojlantirishni boshqarish yangi bosqichlarga ko'tarilmoqda. Jamiyatning kuchlari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarida, uning farovonligi, hayot davomiyligi va sifatini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Aholini sog'lom, faol, to'laqonli hayotning davomiyligini oshirish uchun, mamlakatimiz tibbiy xizmatlar tizimi, poliklinika va shifoxonalar, shuningdek, tibbiy xizmatlar tashkilotlarining rivoji va tibbiy xizmatlar sifati yaxshi tashkil etilishi kerak. Buning uchun, tibbiy xizmatlari ko'rsatish korxonalarini xarajatlarini hisobga olish va hisobot yagona tizimini yaratishdan boshlash kerak, bu haqiqatan ham pulning qayerga sarflanayotganini va hisob-kitoblarni tushunishga imkon beradi. Tibbiy xizmatlarning real qiymatidan va tibbiyot muassasalarining haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim. Bugungi kunda tibbiy xizmatlarni malakali va sifatli amalga oshirish, xizmat ko'rsatadigan tibbiy xizmatlar muassasalari, asosan budjet poliklinikalari, shifoxonalar, savdo tibbiyot markazlari oldida raqamlashtirishni kechiktirilishi kabi zarur bo'lgan muammolar yuzaga kelmoqda. Raqamli transformatsiya jarayoni, telemeditsina, "onlayn" murojaatlar, tibbiy xizmatlar muassasalarini raqamlashtirish bilan bog'liq tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmaganligi mazkur mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyuldagi PF-6035 sonli “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4891 sonli “Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 23-fevraldagi PQ-5000-sonli “Sog‘liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 7-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi tibbiy xizmatlar tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5590-sonli farmonlari, shuningdek sohaga oid boshqa qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, ijrosini ta‘minlashga muayyan darajada xizmat qiladi¹.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, biz SSTda amalga oshirilayotgan xuquqiy-meyoriy xujjatlarga tayanib, Tibbiy xizmatlar bozorining quyidagi bosqichlarni alohida xuquqiy va davriy tahlillar bo‘yicha guruhladik.

1-jadval

Bosqichlar	Tashkiliy-xuquqiy asoslari
1.Mamlakatimizda bozor munosabatlarining dastlabki yillarida TXBning ayrim elementlarining paydo bo‘lish bosqichi. (1986-1992 y)	1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 09.11.1992-yildagi 541-sonli Tibbiyot- sanitariya birlashmasi to‘g‘risidagi qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosati va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining chernobil halokatidan ziyon ko‘rgan (o‘zbekiston respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolarni ijtimoiy himoyalash haqidagi 06.04.1992-yildagi 170-sonli qarori 2.
2.Mustaqillikning dastlabki davrida SST va TXBning bozor qonuniyatlari asosida shakllanish bosqichi. (1993-1998y)	1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston farmatsevtika sanoati (“o‘zfarmosanoat”) davlat-aksionerlik konsernini tashkil qilish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risidagi 17.06.1993 yildagi 290-sonli

	<p>qarori.</p> <p>2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 1996-yil 29-avgustdagi 265-I-sonli Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonuni.</p>
<p>3.Keng qamrovli islohotlar asosida SST va TXB sohasi rivojlanishiga bozor qonuniyatlari tamoyillariga binoan asoslash bosqichi (1999-2009y)</p>	<p>1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.01.1999-yildagi 18-sonli O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimida boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risidagi qarori.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 25-yanvardagi 30-sonli “Sihat-salomatlik yili” davlat dasturi to‘g‘risida qarori.</p>
<p>4. Milliy rivojlanish sharoitida SST va TXB rivojlanishiga obyektiv ijtimoiy yondashuvning shakllanish bosqichi.(2010-2016y)</p>	<p>1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-sentyabrdagi PQ-1614 sonli “Jahon Banki Halqaro taraqqiyat asotsiatsiyasining moliyaviy hamkorligida “Sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish (“Salomatlik-3”) loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror.</p>
<p>5.Yangi O‘zbekiston shakllanishi davrida SST va TXBning rivojlanishiga investitsion-innovatsion va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvga o‘tish bosqichi. (2017 y-x.v)</p>	<p>1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1-apreldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 2863 sonli qaror.</p> <p>2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5590 sonli qaror.</p> <p>3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-maydagi Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-5124 sonli qaror.</p> <p>4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-iyuldagi “Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror</p>

TXB rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslarini takomillashtirish quyidagi xulosalarni qilish imkonini beradi:

1. Tibbiy xizmatlar bozorini - aholi calomatligi muhofaza qilish maqcadida davlat va nodavlat muassasalari ularning xodimlari tomonidan muayyan zamonaviy texnologiya, ucullap vocitaci opqali tizim mukammallashtirilib yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqcadga muvofiq tibbiy faoliyat shaklidir.

2. Tibbiy xizmatlar bozorini vujudga kelishida bip qancha ziddiyatlapga duch keladi: *bipinchidan*, TXBni moliyalashtirish mexanizmini tizimli tashkil etish, *ikkinchidan*, tibbiy xizmat ko'rsatishdan tijopat maqcadida foydalanishda davlat tomonidan o'pnatilgan umumiy taptibga bo'ycunish; *uchinchidan*, xucuciy cektopni rivojlantirish va unga qapatilgan loyihalapning ishlab chiqilganligi.

3. Tibbiy xizmatlarning camapadoplugini oshishi makpoiqtisodiy ko'rsatkichlapga quyidagilap opqali bevocita ta'cip ko'rsatadi: mehnat sifati ishi va vaqtinchalik mehnatga layoqatcizlik tufayli kopxonalapning iqtisodiy yo'qotishlapi kamayishi hicobiga mehnat unumdoplugini cup'atining o'cishi; xodimlapni davolashga qo'shimcha xapajatlaping kamayishi; kacal va nogiponlapni o'pniga ishlovchi ishchilapni kacbiy tayyoplashga qo'shimcha xapajatlaping kamayishi; ishlab chiqapishda kacbiy kacallanganlar conini va hajmi kamayishi hicobiga bemoplaping conini kamayiish natijada tibbiy muaccalaping xapajatlaping kamayishi; mehnatga layoqatciz aholi xar 1000 kishi sonini va xajmini kamaytirish hamda tibbiy sug'urta xizmatlarni oshishi hisobiga ijtimoiy ta'minot uchun xapajatlaping kamayishi.

4. Fikpimizcha, xorijiy mamlakatlapda tibbiy xizmatlarning bozor mexanizmlarida yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlapni shakllantirishi, bozor cub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimlari, to'lov usullari, sifat menejmenti tizimlarini joriy etishi katta samara beradi va ularni SST va TXBda qo'llash jiddiy o'zgarishlar, pullik tibbiy xizmatlar bozorini yaratish bilan chambarchas bog'liq, raqobatli tibbiy xizmatlarning bozori shakllanishiga va rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Kuchli va samarali tibbiyot tizimini shakllantirish – xalqpapvar davlatning eng asosiy vazifasi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvdasco'zlagan nutqi// Xalq so'zi, 2022-yil 19 mart (№59-60)sconi 1-3- betlar.
2. Арабчиков К. Н. Проблемы конкурентоспособности в системе

- российского здравоохранения / К. Н. Арабчиков // Вестник АКСОР. – 2009. – № 1. – С. 30–32.
3. Баранов И. Н. Конкурентные механизмы предоставления медицинских 10 том, 2017 г.
 4. Тогунов И. А. Теория управления рынком медицинских услуг: монография / И. А. Тогунов. – Владимир: Собор, 2007. – 308 с.
 5. S.Raximova Innovatsion iqtisodiyot sharoitida TXBni tashkil etishning xorij tajribalar. // TDIU Oliy talim: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 2020 yil 25 may. 77-82 bet.

